

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

To'lqinova Visola Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

E-mail: visolatolqinova05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20502529>

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kiberjinoiyatchilikni XXI asrning eng dolzarb huquqiy muammolaridan biriga aylantirdi. Cybersecurity Ventures prognoziga ko'ra kiberjinoiyatlarning jahon iqtisodiyotiga yetkazadigan zarari 2025-yilga kelib 10,5 trillion dollarga yetishi kutilgan edi va bu raqam amalda tasdiqlandi. Bunday sharoitda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa Budapesht konvensiyasi talablariga muvofiq isloh qilish O'zbekiston uchun ham zaruratga aylandi. OSCE ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilda Budapesht konvensiyasiga qo'shilish jarayonini rasman boshladi, biroq milliy qonunchilik islohotlari hali to'liq yakunlanmagan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XXI bobi axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tartibga soladi. Ushbu bobning 278¹-moddasi "axborotlashtirish qoidalarini buzish" uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha jarima yoki 1 yilgacha axloq tuzatish ishlarini nazarda tutadi. Biroq UNODCning keng qamrovli kiberjinoiyatlar tadqiqotida ta'kidlanganidek, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lmagan qonunchilikda jinoyatlar tasnifi ham, sanksiyalar darajasi ham xalqaro taqqosiy huquq normalariga to'liq javob bermaydi. O'zbekiston misolida xuddi shu muammoni alohida qayd etib, milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni endigina boshlanayotganini ta'kidlaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, amaldagi qonunchilikda uchta asosiy bo'shliq mavjud, *birinchidan*, kompyuter sabotaji va zararli dasturlar tarqatish kabi og'ir kiberjinoiyatlar uchun belgilangan sanksiyalar Yevropa davlatlaridagi o'xshash normalardan ikki-uch baravar past; *ikkinchidan*, raqamli dalillarni to'plash va sud protsessida ko'rib chiqish tartibi maxsus me'yorlar bilan tartibga solinmagan; *uchinchidan*, transchegaraviy kiberjinoiyatlarda xalqaro hamkorlik uchun protsessual mexanizm etarlicha ishlab chiqilmagan.

Budapesht konvensiyasining 23-moddasiga ko'ra tomonlar kiberjinoiyat ishlari bo'yicha tergov, dalil yig'ish va ekstraditsiyada maksimal hamkorlik qilishi shart. Konvensiyani bugungi kunda 78 dan ortiq davlat ratifikatsiya qilgan. Olimlarning Budapesht konvensiyasi bilan Vyetnam qonunchiligini qiyosiy tahlil qilgan tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, hattoki konvensiyaga a'zo bo'lmagan

davlatlarda ham uning me'yorlarini milliy qonunchilikka tatbiq etish jinoyatlarni aniqlash va jazo samaradorligini sezilarli oshirgan. Texnologiya chegaralarni tan olmaydi, huquq esa tan olishi shart.

Yuqoridagi tahlil asosida O'zbekiston jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur. *Birinchidan*, Jinoyat kodeksidagi kiberjinoyatlar bo'yicha sanksiyalarni, ayniqsa katta zarar yetkazgan yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan hollarda, real jazolovchi darajaga ko'tarish lozim, bu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi amaldagi jazo doirasi bilan mos tushmamoqda. *Ikkinchidan*, raqamli dalillarni sud protsessida ko'rib chiqish tartibi va kiberforenzika bo'yicha maxsus protsessual me'yorlar Jinoyat protsessual kodeksiga kiritilishi kerak. *Uchinchidan*, OSCE tavsiyasiga muvofiq Budapesht konvensiyasiga rasman qo'shilish jarayonini tezlashtirish, bu esa operativ ma'lumot almashinuvi va xalqaro tergov hamkorligini huquqiy asosda amalga oshirish imkonini beradi. *To'rtinchidan*, kiberjinoyatlar bo'yicha maxsus ixtisoslashgan tergov bo'linmasi tashkil etilib, xodimlarning malakasi xalqaro dasturlar orqali muntazam oshirib borilishi shart. Ushbu islohotlar O'zbekistonning raqamli xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi va mamlakat xalqaro kiber hamkorlik tizimida to'laqonli ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

